

**MUHAMMAD RIZO OGAIYNING XORAZM TARIXNAVISLIK
MAKTABIGA QO‘SHGAN HISSASI.**

Ergashov Shohjahon

Toshkent davlat sharqshunoslik

Universiteti yaponshunoslik

fakulteti yapon-ingiliz guruhi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:PhD.Ikromov Sh.

Anatatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlarida Xiva xonlari siyosati va qo‘sni davlatlar bilan munosabatlari, Xorazm tarixidagi eng muhim voqealar bayon etilgan.

Anatatsiya: This article describes the politics of the Khiva Khans and their relations with neighboring countries, as well as the most important events in the history of Khorezm, in the historical works of Muhammad Reza Ogahi.

Kalit so‘zlar: “Riyoz ud – davla”, “Zubdat ut – tavorix”, “Jome ul-voqeoti sultoniy”, “Gulshani - davlat”, Firdavs ul-iqbol”, “Muhammad Aminxon” “Rahimqulixon,” “Olloqulixon”

Kirish

XIX asrda Xiva xonligi tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk insonlardan biri – Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy edi. 1809 yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog’ida mirob oilasida tavallud topgan adib: “Biz Xivada yashovchi yuz toifasidan bo‘lgan Amir Eshimbiyning avlodidandirmiz”, – deb yozgandi.Otasidan erta ayrılgan Muhammad Rizo amakisi, mashhur tarixchi va shoir Munis laqabli Shir Muhammad ibn Amir Ivaz-biy mirob qo‘lida tarbiyalanib, unga o‘qish va yozishni o‘rgatgan. Keyinchalik Xiva xonligi poytaxtidagi madrasalardan birida o‘qishni davom ettirib, arab va fors tillarini o‘rganishga bor kuch-g‘ayratini sarfladi.Sharq xalqlari mumtozlari Navoiy, Fuzuliy, Bedil va boshqalar ijodini katta muhabbat bilan o‘rgandi.Xonga miroblik qilgan amakisining vafotidan keyin Ogahiy bu lavozimni egallaydi. Qishloq xo‘jaligi sun’iy sug‘orishga asoslangan hududda mirobning mavqeい ancha murakkab va mas’uliyatli edi. Biroq, Ogahiy hali ham ilmiy va adabiy izlanishlar uchun vaqt topdi.

Asosiy qism

Ogahiy hayot davomida juda ko‘plab asarlar yozgan ,ko‘plab asarlarni fors tilida turk tiliga tarjima qilgan.Ogahiy Xorazm tarixiga oid juda ko‘p tarixi kitoblar yozadi.U ustoz Shermuhammad Munis boshlagan Firdavs ul-iqbol asarini yozib tugatadi.Bu asarda yer yuzida Odam ota va Momo havo paydo bo‘lgan davrdan Xorazm taxtiga Qo‘ng‘irotlar kelguncha bo‘lgan juda katta davrni oladi.Ogahiy bu asar bilan cheklanib qolmay boshqa tarixi asrlar ham yozadi.Misol uchun „Riyoz uddavla“ („Saltanat bog‘lari“, 1842), „Zubdat uttavorix“ („Tarixlar qaymog‘i“, 1843—1846), „Jome’ ul-voqeoti sultoniy“ („Sultonlik voqealarini jamlovchi“, 1855), „Gulshani davlat“ („Davlat gul-shani“, 1865), „Shohidi iqbol“ („Iqbol guvohi“, 1872) va boshqa tarixiy asarlarida Olloqulixon, Rahimqulixon(1843—

1846), Muhammad Aminxon (1846 – 1855), Sayid Muhammadxon (1856—1864), Muhammad Rahim II (1864—1910) hukmronligi davrida Xorazmda yashagan o‘zbeklar,turkmanlar,qoraqalpoqlar,qozoq xalqlarining tarixi, madaniy va ijtimoiy hayoti, Xiva xonligining boshqa xonliklar bilan munosabati va boshqa tarixiy voqealar aks etgan.Ogahiyning Xiva xonligi tarixini aks ettiruvchi asardan bir “Zubdat uttavorix” (Saralangan tarixlar) Rahimqulixon xonligining dastlabki yillarini aks ettiradi. Unda Rahimqulixonning harbiy yurishlari, Buxoro amiri Nasrulloxonning Qo‘qon xonligiga munosabati, o‘sma davrdagi Xiva xonligining hududi, iqlimi va tabiatni kabilarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar keltirilgan. Asar shunchaki voqealar bayoni emas, balki badiiy bo‘yoqlarga boy bir tilda yozilgan manba bo‘lib, Ogahiyning ijtimoiy – siyosiy qarashlarini aks ettirishi bilan e’tiborga loyiqdir. Bu asar haqida Q.Munirovning tadqiqotlarida qisqacha ma’lumot berib o’tiladi. “Zubdat ut – tavorix” ning muqaddimasida ta’kidlanishicha, Ogahiy “Zubdat ut-tavorix” asarini Rahimqulixonning buyrug‘iga binoan yozishga kirishadi.Sharqda, jumladan, Turon zaminida hukmdorlarning badiiy yoki ilmiy asar, so‘zga ilohiy ne’mat deb qarashlari odatiy hol bo‘lgan. Yaxshi nom qoldirish uchun harakat ular hayotining asosiy dasturi hisoblangan. Xorazm xoni Rahimqulixonning “zikri jamil” va “vasfi jalil” in “jahon avroqida boqiy qoldirish” va “jahon ahlin hayrat bahrig‘a solish” dek xayrli niyati “Zubdat ut-tavorix” asarining yaratilishiga sabab bo‘ladi.“Zubdat ut-tavorix” ikki qismidan iborat. Muarrix qayd etganidek, asarning birinchi qismida Rahimqulixonning tug‘ilishi, ilm o‘rganish va harbiy mahorat kasb etish yo‘lidagi sa’y-harakatlari, shuningdek bo‘lg‘usi xonning Hazorasp hokimi sifatida olib borgan faoliyati mufasssal bayon qilinadi. Asarning ikkinchi qismi Rahimqulixonning saltanat taxtiga o‘tirgan kunidan to vafotiga qadar sodir bo‘lgan voqealar, hodisalar va futuhotlar sharxiga bagishlangan. Ogahiyning fikricha, hukmdor uch fazilat – oliy nasab, ilmu ma’rifat va harbiy mahorat sohibi bo‘lmog‘i zarur. Rahimqulixonda ushbu uchala fazilat ham mujassam bo‘lgan. Buni muarrixning quyidagi so‘zları ifoda etadi: ”Chun ul hazrat, xususan, tavorix va qasoid va masnaviyot va g‘azaliyot va jami’ she’r ulumining qavoidig‘a mahorati tamom hosil qilib, daqiq-fahmlik va nazokatshunoslig‘ va latifago‘ylik fununidaul miqdor avji e’toborg‘a chiqtikim, jahon fozillari va zamon komillari o‘z ajzig‘a qoyil bo‘lib, ul hazrat suhbatida go‘yolik tilin homushlig‘ tamog‘iga tikdilar”, – deb yozadi.Ogahiy Rahimqulixonning harbiy mahorat bobida erishgan yutuqlarini ham shoirona fasohat bilan ta’kidlaydi. Muarrixning qayd etishicha, hijriy 1257-(milodiy 1843) yilda Rahimqulixon otasi Olloqulixonning farmoyishi bilan Eron yurishiga otlanadi. Ushbu safar asnosida Rahimqulixonning adolatli hukmdor sifatida, Ogahiyning ta’birlari bilan aytganda, ”humoyun e’tiqodu pok niyat” shoh sifatida kamolga erishganligini ko‘rsatuvchi ahamiyatli hodisa ro‘y beradi. Bu hodisaning tafsiloti shundan iboratki, Xurosonning Bog‘dis muzofotiga qarashli Ko‘shk va Qoratepa mavzelerida yashovchi Jamshidiya degan toifa Rahimqulixonga Hirot hokimi Shoh Komrondan shikoyat qiladilar. Ular Komronning zulmi haddan oshganligini, Jamshidiy toifasini Xorazmga ko‘chirishga qaror qiladi. Shahzoda ushbu mas’uliyatli vazifani amirlaridan Xudoyerbiy, Niyozmuhammadboy, Muhammad Aminbek va yuzboshilardan Xudoyerbergan va Abdulla yasovulboshilarga yuklaydi. muarrixning ta’kidlashicha, Rahimqulixon Jamshidiya toifasidan o‘n besh ming uylikdan ziyodaroq elatni Xurosandan Xorazm diyoriga ko‘chirib, ”kelturulg‘ondin so‘ng Qilich Niyozboy nahrining bir shu‘basi

kanorida Kuba tog‘ining janubiy ostida ul tavofiyg‘a maskan va mazori; tayin qilindi. Holo ulug‘ el va obodon yurt bo‘lib o‘lturubdurlar”. Diqqatga sazovor jihat shundaki, mazlum xaloyiq madad so‘ragan paytda, Rahimqulixon ulardan o‘z yordamini ayamagan. Ushbu voqeanning o‘zi Ogahiy tarafidan uning sha’niga aytilgan ta’rifi tavsifnig nechog‘lik asosli ekanligiga yorqin dalil bo‘ladi. Tarixga ibrat va tafakkur nazari bilan qaralsa, toj – taxt uchun bo‘lgan kurashlar natijasida necha – necha obod manzillarning xarob bo‘lganligini, buning natijasida el – ulus ahvolining og‘irlashganligini, taraqqiyot o‘z o‘rnini tanazzulga bo‘shatib bergenligini guvohi bo‘lamiz. Shu nuqtai – nazardan, Rahimqulixonning Xiva taxtiga kelishidagi hodisalar haqli ravishda tariximizni nurli manzili sifatida baholanishga loyiqidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1)Ogahiy,asarlarining tavsifi.(katalog)T.:1986
- 2)<http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>